



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 1-aprel, № 62 (9233)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



QOZOG'ISTON BILAN KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Qozog'iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Yermek Kosherbayevni qabul qildi.



Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Qozog'iston Respublikasi Prezidenti

Qosim-Jomart Toqayevning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. O'zbekiston va Qozog'iston

o'rtasidagi yaqin do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb

masalalari muhokama qilindi. Parlamentlar, hukumatlar, hududlar va ishbiarmon doiralari darajasida amalga

oshirilayotgan faol hamkorlik munosabatlari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, qo'shma Hukumatlararo komissiya samarali faoliyat yuritmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror o'sib bormoqda, sanoat, energetika, transport, ekologiya va suvdan foydalanish sohasida kooperatsiya aloqalari izchil kengaymoqda.

Uchrashuv chog'ida iqtisodiy loyihalarni jadallastirish, nodir metallar sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, sayyohlik oqimini yanada ko'paytirish, gumanitar almashinuv dasturlarini, shu jumladan, kosmos va kreativ iqtisodiyot sohaslarida tobora kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar kun tartibini puxta tayyorlash muhimligi ta'kidlandi. Xalqaro va mintaqaviy siyosat masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'buul xizmati surati.

NAMANGAN VILOYATIDA YANGI IQTISODIY "O'SISH NUQTALARI" ISHGA SOLINADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-mart kuni Namangan viloyatida islohotlar natijadorligi hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda so'nggi yillarda Namanganda sanoat, xizmatlar va tadbirkorlik sohaslarida katta o'sish kuzatilib, viloyat ko'plab yo'nalishlarda boshqa hududlar uchun namunaga aylangan ta'kidlandi. Xususan, sakkiz yilda 40 mingdan ziyod yangi korxonalar ish boshlagan, ishlab chiqarish hajmi esa 6 barobar oshib, 40 trillion so'mga yetgan.

Qayd etilganidek, 2025-yil yakunlari bo'yicha viloyat yalpi hududiy mahsuloti 85,4 trillion so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 8,2 foizga yetgan. Sanoat mahsulotlari hajmi 40,1 trillion so'mni, xizmatlar hajmi 56,3 trillion so'mni tashkil qilgan. Viloyatga 3,3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, eksport hajmi 916 million dollarga yetgan.

Davlatimiz rahbari jahon bozoridagi beqaror vaziyat sharoitida Namanganda iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish va yangi "o'sish nuqtalari"ni ishga solish muhimligini ta'kidladi. Shu munosabat bilan 2026-yilda viloyat rahbariyati oldiga iqtisodiyotni 9,2 foizga, sanoatni 9 foizga, xizmatlarni 16,3 foizga, qishloq xo'jaligini 6,8 foizga oshirish, turizm eksportini esa 1,7 barobar ko'paytirish vazifasi qo'yildi. Xorijiy investitsiyalar hajmini 5 milliard dollarga, eksportni 1,2 milliard dollarga olib chiqish vazifasi belgilandi.

Yil yakunigacha ishsizlikni 3,5 foizga, kambag'allikni 2,5 foizga tushirish, Namangan shahri, Davlatobod, Yangi Namangan, Namangan, Kosonsoy, Norin va Uychi tumanlarini ishsizlik hamda kambag'allikdan xoli hududlarga aylantirish zarurligi ko'rsatib

o'tildi. Yig'ilishda sun'iy intellekt asosida hududiy salohiyatni chuqur tahlil qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Norin tumani misolida bu yil investitsiyani ikki karra, sanoatni 10,4 foizga va eksportni 35 foizga oshirish imkoniyatlari aniqlangani aytiladi. Endi ushbu yondashuvni viloyatning barcha tumanlariga tatbiq etish topshirildi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bugungi sharoitda eng dolzarb masalalardan biri ekani qayd etildi. Shu bois viloyatda kam samarali 2,5 ming gektar bog'lar o'rnida zamonaviy intensiv bog'lar tashkil qilish va 8 ming gektar yerni o'zlashtirish vazifasi qo'yildi. Bu orqali qo'shimcha daromad manbalari va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Yig'ilishda yirik investitsiya loyihalariga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, "Namangan" erkin iqtisodiy zonasining "Sabzazor" massivida umumiy qiymati 547 million dollarlik 15 ta loyihani to'liq amalga oshirish uchun qo'shimcha elektr podstantsiyasi qurish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Hozirgacha bu yerda 215 million dollarlik 7 ta loyiha ishga tushgan.

Shuningdek, qiymati 20 million dollar bo'lgan zamonaviy IT-park binosini barpo etish taklifi bildirildi. Ushbu loyiha axborot texnologiyalari sohasiga xalqaro kompaniyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, hududda raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, elektron tijorat va startup ekotizimini jadal rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.



SAMARQAND FORUMI — XALQARO MULOQOT MAYDONI

Kecha Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" parlamentlararo hamkorlik forumi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda Yevropa parlamenti a'zolari, ekspertlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati, akademik doiralarda biznes vakillarini o'zida jam etgan mazkur xalqaro anjumanni o'tkazish tashabbusi davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 4-aprel kuni tashkillashtirilgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" sammitida ilgari surilgan edi.

Anjuman

Mazkur tadbir mintaq va Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi parlament diplomatiyasini tizimli tarzda rivojlantirish hamda amaliy hamkorlikni kengaytirishda samarali muloqot maydoniga aylandi.

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sadiq Safoyev forum ochilishidagi nutqida ushbu format parlamentlararo muloqotni mustahkamlash, ishonchni oshirish va amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladigan muhim platforma ekanini ta'kidlab o'tdi.

O'tgan yilning xuddi shu kunlarida Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" sammiti o'tkazilgan edi. Forum aynan o'sha sammitda ilgari

surilgan tashabbuslardan biri bo'lib, bugungi munosabatlarda yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarilgan ta'kidlandi.

Anjumanda qatnashgan Yevropa parlamenti raisi o'rinbosari Kristel Shaldemoze Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan hamkorligi keng qamrovli bo'lib, ko'p tomonlama hamjihatlik erkin savdo va demokratiya tamoyillariga asoslangan barqarorlik hamda farovonlikni ta'minlashga qaratilganini qayd etdi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo va Mo'g'uliston bilan aloqalar bo'yicha Yevropa parlamenti delegatsiyasi rahbari Djuzi Princhi parlamentlararo muloqotni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanish va qonun ustuvorligini ta'minlashda hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega ekaniga urg'u berdi.

O'ZARO ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN MUZOKARALAR

"Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi parlamentlararo forumi doirasida bir qator uchrashuvlar ham bo'lib o'tdi. Xususan, Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sadiq Safoyev Markaziy Osiyo va Mo'g'uliston bilan aloqalar bo'yicha Yevropa parlamenti delegatsiyasi rahbari Djuzi Princhi hamda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Eduards Stiprays bilan muzokaralar o'tkazdi.

Uchrashuv

Uchrashuv chog'ida D. Princhi O'zbekistonga mazkur forum tashabbusi hamda uni yuqori darajada tashkil etgani uchun minnatdorlik

bildirib, ushbu platforma Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi parlamentlari o'rtasidagi muloqotning birinchi institutsional shakli sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida tashqi aloqalarni diversifikatsiya qilish zarurligi urg'ulanib, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash muhimligi ta'kidlandi. Shuningdek, O'zbekiston Yevropa Ittifoqining mintaqadagi ishonchli strategik sherigi sifatida e'tirof etilib, siyosiy muloqot bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, turizm, madaniy hamda ta'lim sohaslarida ham hamkorlikni kengaytirish zarurligi aytiladi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTIMIZGA DAXLDOR MASALALARNING HUQUQIY ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor masalalar, jumladan, aholi va tadbirkorlik subyektlarining sug'urta savodxonligini oshirishga, "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyati samaradorligini ko'tarishga, milliy qonunchilikni jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirishga doir qator qonun loyihalari muhokama qilindi.

Jamg'arma faoliyati samaradorligi oshiriladi

Dastlab deputatlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda iqtidorli yoshlar va mutaxassislarining xorijdagi nufuzli ta'lim, ilmiy va boshqa tashkilotlarda ta'lim olishini tashkil etish hamda norma ijodkorligi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatsiyasining majburiyatlarini aniq belgilash, jamg'arma tomonidan



sarflangan mablag'larni undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga da'vo kiritishda davlat bojini to'lashdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normani kiritish taklif etilmoqda.

Shuningdek, loyihada idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibini soddalashtirish hamda muddatlarni qisqartirish nazarda tutilyapti.



Nuqtai nazar

TARIXDAN SABOQ OLINGAN JOYDA, ALBatta, BILIM VA MA'RIFAT, TARAQQIYOT VA ADOLAT BO'LADI

Vatanimiz hududi asrlar davomida jahon tamaddunining muhim markazlaridan biri sifatida islom madaniyati va ilm-fani rivojida beqiyos o'rin tutib kelgan. Buyuk mutafakkirlar, allomalar va muhaddislar yetishib chiqqan bu zaminida boy ma'naviy meros shakllangan. Ana shu ulkan merosni asrab-avaylash, uni chuqur o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida barpo etilgan va Prezidentimiz ishtirokida ochilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega ilmiy-ma'rifiy maskan sifatida namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi buniyodkorlik salohiyati, jahon to'xtalib, muqaddas dinimiz ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga, ilm-ma'rifat yo'lida da'vat etishini, uni zo'ravonlik va qon

to'kish bilan bir qatorda qo'yadiganlar bilan murosaa qilib bo'lmagligini alohida ta'kidlagan edi. Ana shu yuksak g'oya va maqsadlar asosida tiklangan mazkur markaz xalqimizning uch ming yillik tarixi, buniyodkorlik salohiyati, jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hisssasi, buyuk ajdodlarimizning madaniy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish va keng ommalashtirishga xizmat qiladi.



Mahalliy Kengashlarda

DEPUTATLAR NEGA BEZOVTA?

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdagi sessiyasida hududda yuz berayotgan yo'l-transport hodisalarini ular oqibatida halok bo'lganlar sonining oshib borayotgani tahlikali holat, deb baholandi. Ayniqsa, "M-379" Navoiy — Zarafshon — Uchquduq avtomobil yo'lida so'nggi paytlarda shunday hodisalar tufayli bir necha fuqaro hayotdan ko'z yumgani deputatlarni befarq qoldirmadi. Sessiyada mazkur masala yuzasidan Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining hisoboti tinglandi.

Viloyat Kengashi deputati Shoira Nosirova joriy yilning 22-fevral va 7-mart kunlari avtohalokatlar tufayli to'qqiz kishi halok bo'lgani, biroq ilgariroq esa ikki marta avtobuslar

ishtirokida yo'l-transport hodisalarini qayd etilganini eslatib, bunday holatlarning kelib chiqish sabablari borasida boshqarma boshlig'ining fikrini so'radi.

— Qariyb 340 kilometrni tashkil qiluvchi mazkur yo'l o'tgan asrning 70-yillarida qurilgan, — dedi viloyat IIB boshlig'i Azad Tasbayev. — Eni 7 — 9 metrlik bu yo'lning, ayniqsa, Navoiy va Zarafshon shaharlari oraliqidagi qismi bugungi kunda transport oqimini ko'tara olmayapti. Misol uchun, 19-mart kuni ushbu yo'lga 27 mingta transport vositasi harakati qayd etilgan. Ayanchli yo'l-transport hodisasida bir oilaning to'rt nafar a'zosi halok bo'lgan 7-mart kuni ham shunga yaqinroq darajadagi qatnov kuzatilgan.

Qizg'in muhokamalardan so'ng deputatlar tomonidan mazkur yo'lning zamon talabi asosida kengaytirish, Navoiy va Zarafshon shaharlari oraliqidagi mavjud temir yo'l tarmog'ini orqali yo'lovchi tashish xizmatini yo'lga qo'yish yuzasidan tegishli tashkilotlarga murojaat qilish bo'yicha takliflar ma'qullandi. Muhimi, deputatlarning murojaati be'tibor qolmasa bo'lgani...

Temur ESHBOYEV ("Xalq so'zi").

NAMANGAN VILOYATIDA YANGI IQTISODIY “O‘SISH NUQTALARI” ISHGA SOLINADI

➡ Davlatobod tumanini “Aqlii shahar”ga aylantirish, Namangan davlat texnika universitetiga qarashli bo‘sh obyektlar negizida sun‘iy intellekt ilmiy laboratoriyasi va startaplari klubini tashkil etish tashabbuslari ham muhokama qilindi. “Namangan – aqlii shahar” yagona raqamli platformasi orqali kommunal xizmatlar, chiqindilarni boshqarish, ekologik monitoring va transport tizimlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish rejalashtirilgan aytiladi.

Sanoat va tadbirkorlik bo‘yicha qator yangi tashabbuslar ko‘rib chiqildi. Jumladan, Chust tumanida quvvati 60 megavatt bo‘lgan “yashil” energiya loyihasini amalga oshirish uchun 24 gektar yer maydoni ajratish taklifi ilgari surildi. Chortoq tumanida alkogolsiz salqin ichimliklar, sharbatlar va bolalar ozuqasi

ishlab chiqarish korxonasi loyihasi taqdim etildi.

Qishloq xo‘jaligida ham katta xaziralar borligi ta’kidlandi. 2026-2027-yillarda yangi intensiv bog‘ va tokzorlar barpo etish tashabbuslari doirasida 3948 gektar maydonda bog‘ va tokzorlar tashkil qilish, 1,3 million tup ko‘chat ekish, 1,5 ming gektarda tomchilatib sug‘orishni joriy etish rejalashtirilgan.

Parrandachilik sohasida 50 million dollarlik yirik loyiha amalga oshirilishi, uning doirasida 813 million dona tuxum va 2 ming tonna go’sht ishlab chiqarish quvvati yaratilishi ma’lum qilindi. Bu viloyatning tuxumga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq ta’minlash, Markaziy Osiyo va arab davlatlariga 42 million dollarlik parranda go’shti hamda tuxum mahsulotlari eksport qilish imkonini beradi.

Turizmni iqtisodiyotning drayver sohasiga aylantirish masalasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

Viloyatni vadiy turizmi markaziga aylantirish maqsadida Pop tumanidagi Arashan ko‘llari atrofidagi zamonaviy va innovatsion turizm majmuasi, Qamchiq dovoni hududida “Qamchiq Mountain Resort” xalqaro ko‘p funksiyali tog‘ dam olish zonasi, Chodak qishlog‘i Guliston mahallasida turizm markazi, Kosonsoy tumani Olmazor mahallasida yirik turizm maskanini tashkil qilish, Yangiyo‘rg‘on tumani Nanay hududida sun‘iy ko‘l loyihasini amalga oshirish taklif etildi.

Shuningdek, Namangan shahriining eski shahar qismida milliy me’morchilik, hunarmandchilik an’analari va zamonaviy servisini uyg‘unlashtirgan turizm majmuasini tashkil etish, “Chorsu” va “Sardoba”

bozorlari negizida zamonaviy “ekobozor”lar barpo qilish, ko‘p qavatli avtoturargohlar qurish takliflari bildirildi. Bu loyihalar shahar iqtisodiyotini faollashtirish, savdo va xizmatlar sohasida yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qilishi qayd etildi.

Infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha ham qator yirik loyihalar ko‘rib chiqildi. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida Namangan shahri kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish, shuningdek, Uchqo‘rg‘on va Uychi tumanlari markazlarini ilk bor markazlashgan oqova suv tarmoqlari bilan ta’minlash loyihalari taqdim etildi. Uychi va Uchqo‘rg‘onda 10 ming kub metrlik yangi oqova suv inshooti, 40 kilometr yangi tarmoq va 28 kilometr ta’minlab tarmoqni yangilash orqali 42 ming nafar aholi va 6983 ta xonadon qamrab olinishi belgilangan.

Yangi Namangan shaharchasida qurilish ishlarini jadallashtirish masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Loyiha doirasida 30 ming yangi ish o‘rni yaratish, 25,2 kilometr yo‘lni ta’minlash, 7,2 kilometr piyodalarni yo‘lakhasini, 4,7 kilometr suv tarmoqini va 7,4 kilometr yashil hududni barpo etish nazarda tutilgan.

Ijtimoiy sohada ham yirik tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, Namangan shahrida 2026-yilda 15 ming o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil qilish, 21 ta ta’lim muassasasidagi bo‘sh turgan 42 ming kvadrat metr yer maydonlarini davlat-xususiy sheriklik asosida bog‘cha qurish uchun ajratish taklif qilindi.

Sog‘liqni saqlash sohasida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya markazining Namangan filialini

tashkil etish, onkologiya va radiologiya markazini zamonaviy PET-tomograf apparati bilan jihozlash, ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini rekonstruksiya qilish va yuqori texnologiyali operatsiyalarni yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar ko‘rib chiqildi. Bu orqali nafaqat viloyat aholisi, balki qo‘shni hududlardan keluvchi bemorlarga ham yuqori malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati kengayishi aytiladi.

Yig‘ilish yakunida Prezidentimiz Namangan viloyatida mavjud salohiyatni to‘liq ishga solish, har bir loyihani aniq natijaga aylantirish, aholi bandligi hamda daromadini oshirish, eksportbop va yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishlarni kengaytirish bo‘yicha mutasaddirlarga topshiriqlar berdi.

O‘ZA.

SAMARQAND FORUMI – XALQARO MULOQOT MAYDONI



➡ Bundan tashqari, ochilish marosimida so‘zga chiqqan Qozog‘iston Parlament Majlisining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik qo‘mitasi raisi Aygul Kuspan, Tojikiston Majlisi namoyandagon Majlisi Oli raisining o‘rinbosari Mavsuma Muini, Turkmaniston Mejlisining Xalqaro va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi raisi Maksat Kuliyev, Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshining Fan, ta’lim, innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari, madaniyat, sport va yoshlar ishleri qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Saltanat Amanova mintoqalararo sheriklikni yanada chuqurlashtirish

zarurligiga alohida e’tibor qaratdi. Xalqaro tadbir bugungi siyosiy muloqotning holati va uning kelgusi istiqbollari, “yashil” transformatsiya, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik, raqamli makon xavfsizligi, inklyuziv boshqaruv hamda parlament diplomatiyasining zamonaviy ahamiyati kabi dolzarb masalalar bo‘yicha sessiyalarga bo‘lingan holda davom etdi.

Forum yakunida ilgari surilgan tashabbus va kelishuvlar jamlangan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi parlamentlararo forumining Qo‘shma bayonoti qabul qilindi.

Hamroqul QARSHIYEV
 (“Xalq so‘zi”)

MUHOKAMA MARKAZIDA KADRLAR TAYYORLASH VA PROBATSIYA NAZORATI



Senat qo‘mitasida

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunning rezervdagi hamda xaziradagi ofitserlarni tayyorlashga oid qismi Toshkent shahridagi oliy ta’lim muassasalarida qanday ijro etilayotgani holatini o‘rganish natijalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, mamlakat mudofaa salohiyatini oshirish, harbiy harakatlar davrida qo‘shinlarni malakali komandirlar bilan o‘z vaqtida to‘ldirish, harbiy hisob ixtisosliklarini mustahkamlash hamda zamonaviy qurol-aslahalar boshqaruv oladigan yuqori malakali ofitserlar tarkibini shakllantirish maqsadida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi va Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti harbiy ta’lim fakultetida amaldagi qonunchilikka muvofiq 33 ta yo‘nalish bo‘yicha 1 068 nafar rezerv va xaziradagi ofitser tayyorlanmoqda.

Zamonaviy tahdidlarni hisobga olgan holda rezerv va xaziradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi takomillashtirilib, mavjud o‘quv dasturlari zamonaviy urushlar tajribasi asosida boyitilgan. Shu bilan birga, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi olib borilayotgan usullari, zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar, uchuvchisiz uchish apparatlarini, robotlashtirilgan vositalar hamda o‘q-dorilar va ulardan himoyalash usullari o‘quv jarayoniga joriy etilgan.

Bundan tashqari, xaziradagi ofitserlarni tayyorlash dasturlari talablarini to‘liq bajarish maqsadida 200 dan ortiq o‘quv moddiy-texnik bazalar yaratilgan va jihozlangan.

Mudofaa vazirligi harbiy qismlari va muassasalari o‘quv bazalari hamda dala-o‘quv maydonlarida o‘quv yig‘inlari hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘tkazish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilgan. Shu bilan birga, mazkur amaliy mashg‘ulotlar jarayonida zamonaviy qurol-aslahalar namunalaridan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Harbiy tayyorgarlik bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan va bakalavriat ta’limini to‘liq tamomlagan talabalarga belgilangan tartibda “leytenant” harbiy unvoni berilib, ular haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilmoqda yoki rezerv hamda xazira safiga o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan o‘rganishlar, aholi bilan muloqotlar, qonunchilik hujjatlarining ijro etilish holati hamda huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili sohada ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligini ham ko‘rsatmoqda.

Xususan, harbiy tayyorgarlikdan o‘tish istagida bo‘lgan xotin-qizlar soni ko‘payib borayotgan bir sharoitda ularning bu boradagi huquqlarini kafolatlovchi asoslar yetarli emas. Jumladan, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasida oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limida o‘qiyotgan bajarish maqsadida 200 dan ortiq o‘quv moddiy-texnik bazalar yaratilgan va jihozlangan.

Mudofaa vazirligi harbiy qismlari va muassasalari o‘quv

bazalari hamda dala-o‘quv maydonlarida o‘quv yig‘inlari hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘tkazish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilgan. Shu bilan birga, mazkur amaliy mashg‘ulotlar jarayonida zamonaviy qurol-aslahalar namunalaridan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Harbiy tayyorgarlik bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan va bakalavriat ta’limini to‘liq tamomlagan talabalarga belgilangan tartibda “leytenant” harbiy unvoni berilib, ular haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilmoqda yoki rezerv hamda xazira safiga o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan o‘rganishlar, aholi bilan muloqotlar, qonunchilik hujjatlarining ijro etilish holati hamda huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili sohada ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligini ham ko‘rsatmoqda.

Xususan, harbiy tayyorgarlikdan o‘tish istagida bo‘lgan xotin-qizlar soni ko‘payib borayotgan bir sharoitda ularning bu boradagi huquqlarini kafolatlovchi asoslar yetarli emas. Jumladan, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasida oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limida o‘qiyotgan bajarish maqsadida 200 dan ortiq o‘quv moddiy-texnik bazalar yaratilgan va jihozlangan.

Mudofaa vazirligi harbiy qismlari va muassasalari o‘quv bazalari hamda dala-o‘quv maydonlarida o‘quv yig‘inlari hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘tkazish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilgan. Shu bilan birga, mazkur amaliy mashg‘ulotlar jarayonida zamonaviy qurol-aslahalar namunalaridan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Harbiy tayyorgarlik bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan va bakalavriat ta’limini to‘liq tamomlagan talabalarga belgilangan tartibda “leytenant” harbiy unvoni berilib, ular haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilmoqda yoki rezerv hamda xazira safiga o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan o‘rganishlar, aholi bilan muloqotlar, qonunchilik hujjatlarining ijro etilish holati hamda huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili sohada ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligini ham ko‘rsatmoqda.

Xususan, harbiy tayyorgarlikdan o‘tish istagida bo‘lgan xotin-qizlar soni ko‘payib borayotgan bir sharoitda ularning bu boradagi huquqlarini kafolatlovchi asoslar yetarli emas. Jumladan, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasida oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limida o‘qiyotgan bajarish maqsadida 200 dan ortiq o‘quv moddiy-texnik bazalar yaratilgan va jihozlangan.

Mudofaa vazirligi harbiy qismlari va muassasalari o‘quv

mexanizmlari ham aniq belgilanmagan, ularni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida hududiylik prinsiplariga aniqlik kiritilgan.

Senatorlar bu kabi muammolarni hal etish maqsadida amaldagi qonun hujjatlarini chuqur tahlillar asosida o‘rganib, takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdi.

Shuningdek, majlisda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ham dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, probatsiyani amalga oshirish maqsadida qonun hujjatlarida jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazorat mexanizmlari va nazorat subyektlarining bu boradagi vazifalari to‘liq belgilanmagani mazkur munosabatlarni huquqiy jihatdan yanada aniq tartibga solishni talab etmoqda.

Mazkur qonun aynan shu maqsadlarga xizmat qilib, shartli ozod etilgan shaxslar ustidan samarali probatsiya nazoratini o‘rnatishga, ular tomonidan qayta huquqbuzarlik va jinoyat sodir qilinishining oldini olishga, shuningdek, tergov hibsonalarida saqlanayotgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada ishonchli ta’minlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Muhokamalar yakunida qo‘mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

O‘ZARO ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN MUZOKARALAR

➡ Tomonlar parlamentlararo forumlarni navbati bilan Bryussel shahri va Markaziy Osiyo davlatlari poytaxtlarida muntazam o‘tkazishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

Bundan tashqari, forum doirasida qator parlament delegatsiyalari rahbarlari bilan ham uchrashuvlar o‘tkazildi.

Jumladan, Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev Qozog‘iston Parlament Majlisining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik qo‘mitasi raisi Aygul Kuspan, Tojikiston Majlisi namoyandagon Majlisi Oli raisining o‘rinbosari Mavsuma Muini, Turkmaniston Mejlisining Xalqaro va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi raisi Maksat Kuliyev, Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshining Fan, ta’lim, innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari, madaniyat, sport va yoshlar ishleri qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Saltanat Amanova bilan samarali muloqotlar bo‘lib o‘tdi.

Delegatsiya rahbarlari Samarqand sammitida ilgari surilgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” parlamentlararo forumini ta’sis etish tashabbusi O‘zbekistonning mintoqalararo hamkorlikni rivojlantirishdagi birlashtiruvchi o‘rni yaqqol namoyon qilganini ta’kidlashdi.

Shuningdek, davlat rahbarlari tomonidan erishilgan kelishuvlarni parlament darajasida qo‘llab-quvvatlash va amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish muhimligi ham aytiladi. Forumni institutsionallashtirish, uni rotatsiya asosida o‘tkazish va ishtirokchilar doirasini kengaytirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.

Uchrashuvlarda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga qiziqishi ortib borayotgani aytilib, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun muvofiqlashtirilgan mintaqaviy yondashuv zarurligi ta’kidlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarilgani alohida qayd etildi.

Shu bilan birga, parlamentlararo hamkorlikni yanada kuchaytirish, jumladan, YEXHT Parlament Assambleyasi doirasida transport bog‘liqligi va ekologik barqarorlik masalalariga bag‘ishlangan qo‘shma tadbir o‘tkazish tashabbusi ham qo‘llab-quvvatlandi.

“Xalq so‘zi”.

OLY DARAJADAGI KELISHUVLARNING MANTIQIY DAVOMI

Kecha qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” parlamentlararo hamkorlik forumi bo‘lib o‘tdi. Nufuzli tadbir ishtirokchilarining ushbu anjuman va uning ahamiyati haqidagi fikrlarini yozib oldik.

Munosabat

Aygul KUSPAN,
Qozog‘iston Parlament
Majlisining Xalqaro ishlar,
mudofaa va xavfsizlik qo‘mitasi
raisi:

O‘tgan yili aynan shu maydonda Markaziy Osiyo davlat rahbarlari va Yevropa Ittifoqi rahbariyati o‘rtasida strategik muloqot yo‘lga qo‘yilgan edi. Bugun esa ushbu siyosiy jarayon mantiqiy davom etmoqda, ya’ni parlament diplomatiyasi darajasiga ko‘tarilmoqda.

Parlamentlararo muloqot – oliy darajada erishilgan kelishuvlarning hayotga tatbiq etilishini ta’minlaydigan muhim mexanizm. Chunki deputatlar xalqning bevosita vakillari sifatida jamiyat bilan doimiy muloqotda bo‘ladi. Demak, ular strategik qarorlarni joylarda tushuntirish, jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash va eng muhimi, kelishuvlarning amaliy ijrosiga ko‘maklashishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Samarqandda ushbu nufuzli forumni o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan O‘zbekiston parlamenti mintaqaviy hamkorlikni yangi



bosqichga olib chiqishda yana bir bor yetakchilik qildi. Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari hamda Yevropa parlamenti vakillarining forumdagi ishtiroki bu muloqotga yuqori qiziqish va ishonchdan dalolat beradi.

Eng muhimi, bugun Markaziy Osiyo xalqaro maydonda alohida davlatlar yig‘indisi emas, balki yagona geosiyosiy va geoiqtisodiy makon sifatida qabul qilinmoqda. Mintaqaning “yagona subyekt” sifatida shakllanishi so‘nggi yillardagi eng katta yutuqlardan biridir. Bu esa, o‘z navbatida, har bir davlatning xalqaro nufuzini mustahkamlab, umumiy imkoniyatlarni bir necha barobar oshirmoqda.

Qariyb 100 million aholiga ega Markaziy Osiyo bozori, boy tabiiy resurslar, strategik geografik joylashuv va ulkan madaniy meros Yevropa Ittifoqi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa,

bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda mintaqa orqali o‘tuvchi “O‘rta yo‘lak” – Kaspiy dengizi, Janubiy Kavkaz va Turkiya orqali Yevropa bilan bog‘lovchi transport-logistika yo‘nalishi global ahamiyatga ega strategik koridorga aylanmoqda.

Shu bilan birga, hamkorlik faqat iqtisodiy va transport sohalari bilan cheklanmaydi. Ekologiya masalalari – Orol dengizi inqirozi, iqlim o‘zgarishi, muzliklarning erishi kabi umumiy tahdidlar Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi sheriklikni yanada dolzarb qiladi. Bu borada Yevropa Ittifoqining ilg‘or tajribasi mintaqamiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Ishonchimiz komilki, Samarqand forumi yangi tashabbuslar, amaliy loyihalar va aniq “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilishiga zamin yaratadi. Va asosiysi, ushbu format bir martalik muloqot bo‘lib qolmay, muntazam parlamentlararo platformaga aylanadi. Bu esa xalqlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, o‘zaro anglashuvni chuqurlashtirish va keng qamrovli hamkorlikni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytib, Samarqand forumi – Markaziy Osiyoning global siyosiy jarayonlardagi o‘rni va roli ortib borayotganining yaqqol ifodasidir. Parlament diplomatiyasining faollashuvi esa ushbu jarayonning barqaror va uzviy davom etishini ta’minlaydi.

turki beradi. Tojikiston Respublikasi bu kabi hamkorlikni institutsionallashtirishni qo‘llab-quvvatlashda davom etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, bir necha kun oldin Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O‘zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bo‘lib o‘tdi. Ushbu tashrif davomida siyosiy, iqtisodiy, gumanitar va madaniy aloqalar sohasida 15 dan ortiq turli hujjatlar imzolandi.

Barchamizga ayonki, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oqilonona siyosati tufayli ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar barcha sohalarda keskin o‘zgardi. Hozirgi kunda 250 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Va, albatta, ushbu hujjatlarini amalga oshirishda Tojikiston va O‘zbekiston parlamentlarining roli beqiyos.

Ikki birodar davlat o‘rtasidagi yaxshi va do‘stona munosabatlarning yana bir tasdiqi – 2018-yilda barcha chegaralar ochilganda O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari shodlikdan ko‘z yoshini to‘xtatolmagan edi. Bugun barcha yo‘llar ochiq va bu xalqlarimizning yaqinlashishiga yanada katta imkoniyat yaratadi.

“Xalq so‘zi”.

Mavsuma MUINI,
Tojikiston Majlisi namoyandagon Majlisi Oli
raisining o‘rinbosari:



– Avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi birinchi parlament forumida ishtirok etish imkoniyati va albatta, tarixiy hamda qadimiy Samarqand shahrida ko‘rsatilgan samimiy va iliq qabul uchun minnatdorlik bildirmoqchiman. Biz Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi birinchi parlament forumini yuqori baholaymiz. Ushbu tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 4-aprelda Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti doirasida ilgari surilgan edi. Forumning o‘tkazilishi yana bir birodar mamlakat – O‘zbekiston Respublikasining keng ko‘lamli, izchil, ochiq va tinchlikparvar tashqi siyosatini ta’kidlaydi.

Ishonchim komilki, ushbu forum parlamentlararo muloqotni rivojlantirish, siyosiy ishonchni mustahkamlash va strategik sheriklikni kengaytirishga yanada katta

IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTIMIZGA DAXLDOR MASALALARNING HUQUQIY ASOSI

Xususan, bunday hujjatlar loyihasining jamoatchilik muhokamasi muddatini 10 kun etib belgilash, 5 kun ichida taklif kelib tushmagan taqdirda loyihani huquqiy ekspertizaga kiritish imkoniyatini berish, shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertiza va davlat to'yxatidan o'tkazish muddatini 20 kunga qisqartirish taklif qilinmoqda.

Shuhrat YAKUBOV,
Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi a'zosi:

Qonun loyihasining qabul qilinishi "El-yurt umidi" jamg'armasi bilan tuzilgan shartnoma shartlarini bajarmagan stipendialarga Davlat byudjetidan sarflangan mablag'larni undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga da'vo kiritishda jamg'armani davlat bojini to'lashdan ozod etishga xizmat qiladi. Bu orqali stipendialarning mas'uliyati ortib, nizoli vaziyatlar kamayadi, shartnoma shartlarining bajarilishida esa ijobiy ko'rsatkichlarga erishiladi. Asosiysi, jamg'armaning moliyaviy ko'magi hisobidan dunyoning eng nufuzi "TOP - 300" universitetlarida o'qib kelgan kadrlarning yurtimiz taraqqiyotiga hisssasi ortadi.



Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Iste'molchilar ishonchli axborot bilan ta'minlanadi

Majlisda "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tadbirkorlar va aholining sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirishga hamda sug'urta xizmatlarini keng ommalashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda moliyaviy xizmatlar bozorini, jumladan, sug'urta sohasini jadal rivojlantirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash, aholi va tadbirkorlarning ushbu xizmatlarga ishonchini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham bu borada muhim vazifalar belgilangan.

Shundan kelib chiqib, ushbu qonun loyihasi bilan "Reklama to'g'risida"gi Qonunning ayrim moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda. Unga ko'ra, sug'urta savodxonligini oshirishga qaratilgan axborotni ijtimoiy axborot etib belgilash hamda ijtimoiy axborotning reklama beruvchilari sifatida sohalardagi vakolati davlat organlarini ham kiritish taklif qilinmoqda.

Javlon ABDULLAYEV,
Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Ushbu qonun loyihasining ahamiyatli jihati shundaki, u sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida iste'molchilarni keng qamrovli va ishonchli axborot bilan ta'minlash orqali ularning bu xizmatlardan foydalanishida qulay shart-sharoitlar yaratish, aholida esa sug'urta xizmatlariga ishonchni o'rnatish nazarda tutadi.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, undagi ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Mutasaddilar barcha savollarga tushuntirish berib o'tdi.

Bahs-munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Milliy qonunchilik Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirilmoqda

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat - "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga eksport tartib-taomillarini Jahon savdo tashkiloti qoidalarga muvofiqlashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda tashqi savdoni erkinlashtirish, eksport tartib-taomillarini yanada takomillashtirish, O'zbekistonning xalqaro savdo integratsiyasini ta'minlash, milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga binoan olib chiqiladigan buyumlar va mahsulotlar eksportiga doir ruxsatnoma berish tartibini bekor qilinishi nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, loyiha bilan litsenziyalash va ruxsat berish bo'yicha huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga qo'llaniladigan jarimalar ro'yxatidan eksportga oid cheklovlar chiqarib tashlanmoqda.

Dilmurod ISMOILOV,
Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi:

Mazkur qonun loyihasida belgilanayotgan normalar mahsulotlar eksportini kengaytirish, eksportdagi mavjud cheklovlarini bartaraf etish, raqobat va ochiq bozor muhitini yaratish, shuningdek, milliy qonunchilikni JST qoidalarga uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Aytish joizki, quyi palataning Qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha komissiyasi ham ushbu jarayonda faol qatnashib, ishlab chiqilayotgan qonunlarga o'z takliflarini berib kelmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Transport vazirining axboroti eshitiladi

Majlisda transport vaziri I. Mahkamovning "Temir yo'l transporti sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish hamda yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida"gi axborotini eshitish haqidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda temir yo'l transporti sohasini jadal rivojlantirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, logistika tizimini takomillashtirish, yuk va yo'lovchi tashish xizmatlari samaradorligini oshirish, shuningdek, aholi va iqtisodiy tarmoqlarini ishonchli, uzluksiz va sifatli transport xizmatlari bilan ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar uddalanmoqda.

Shu bilan birga, Qonunchilik palatasi deputatlarining joylarga chiqib o'rganishlari jarayonida temir yo'l transportida yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari darajasini oshirish, yagoni sonini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, vokzallar infratuzilmasini rivojlantirish, servis va raqamli xizmatlar bilan bog'liq ayrim masalalar kuzatilmoqda.

Majlisda shundan kelib chiqib, mazkur masalalar yuzasidan transport vazirining axborotini eshitish haqida tegishli qaror qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

Fikr

TABIATNI ASRASHGA KOMPLEKS YONDASHUV

Jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etish va bu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash bugunning muhim vazifalaridan biridir. Davlatimiz rahbarining "Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadalashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazkur sohadagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.



Hujjatga muvofiq, 2026-2027-yillarda davomida respublikaning har bir hududida o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlaydigan 14 ta "yashil" texnikum faoliyati yo'lga qo'yilib, 2030-yilga qadar ularda o'n ming nafardan ortiq malakali kadrlar tayyorlash ko'zda tutilgan. Bu ekologik sohadagi kadrlar ehtiyojini ta'minlashda muhim omil bo'ladi, albatta.

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetiga birkirtiladigan "yashil" texnikumlarda o'quv jarayoni ushbu universitet tomonidan ishlab chiqiladigan dasturlar asosida tashkil etilishi ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash imkonini beradi.

E'tiborli jihatlardan yana biri - iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi bilan bog'liq. Xususan, "yashil" texnikumlarda ekostipendiya ta'xis qilinib, har yili eng faol hamda bilimli o'quvchilarga munosib rag'bat beriladi. Bu, o'z navbatida, yoshlarning ta'limga qiziqishini oshirib, ularni yangi yutuqlar sari ilhomlantiradi. Shu bilan birga, ingliz tilidan "V2" darajaga ega bo'lgan va yuqori ko'rsatkichlarga erishgan bitiruvchilar bakalavriatning ikkinchi bosqichidan o'qishni davom ettirishi mumkin bo'ladi.

Darvoqe, qaror doirasida ekologik madaniyatni ommalashtirishga qaratilgan qator tashabbuslar ham nazarda tutilgan. Oliy ta'lim muassasalarida "yashil kampus" loyihalari amalga oshirilishi, 2026-yil 1-maydan "10 ming qadam piyoda" tashabbusi qayta tiklanishi va "Sog'lom turmush tarzi" platformasi ishga tushirilishi shular jumlasidandir. Qolaversa, yoshlarning ekologik faolligini rag'batlantirish maqsadida "Yosh ekolog" ko'krak nishoni ta'xis etilishi yoshlarni ilimga, innovatsiyaga hamda tashabbuskorlikka undaydi, ularda atrof-muhitga nisbatan daxldorlik hissinu yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, 2026 - 2028-yillarda ekologiya va iqlim o'zgarishi sohasida ilmiy darajaga ega mutaxassislar sonini 150 nafarga yetkazish vazifasi belgilangan ilmiy salohiyatni oshirishga qaratilgan muhim qadamdur. Boisi ushbu tashabbus kelgusida ekologiya va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa nafaqat milliy, balki mintaqaviy hamda global miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ekologik ta'lim, ilm-fan va keng ko'lamli targ'ibot tadbirlarini tizimli ravishda tashkil qilish hamda rivojlantirishga qaratilgan ushbu qaror o'zida kompleks va uzviy yondashuvni namoyon etadi. U orqali ta'limning barcha bosqichi - maktabdan tortib texnikum va oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonlar o'zaro bog'liq holda shakllantirilib, yagona samarali tizimga aylantirilmoqda. Bu nafaqat malakali kadrlar tayyorlash, balki ularning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash, balki mehnat bozori talablariga moslashtirish imkonini ham yaratadi.

Biz, deputatlar esa xalq vakillari sifatida ushbu muhim qaror ijrosiga ko'maklashish va parlament nazoratini olib borishdan manfaatdormiz. Zero, mazkur hujjat ijrosi jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish, sog'lom turmush tarzini qaror topirish hamda tabiatga ehtiyotkor munosabatni mustahkamlash, eng muhimi, kelajak avlod uchun sof va musaffo atrof-muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Gulchehra TOJIBOYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TARIXDAN SABOQ OLINGAN JOYDA, ALBATTA, BILIM VA MA'RIFAT, TARAQQIYOT VA ADOLAT BO'LADI

Konstruktiv muloqot maydoni

Tan olish kerak, jahonda geosiyosiy beqarorlik va iqtisodiy muammolar yuz berayotgan pallada O'zbekiston o'zining madaniy va strategik ta'sirini kuchaytirish orqali muhim qadam tashladi. Yangi barpo etilgan O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatimizning boy tarixiy merosi va butun Yevroosiy bo'yab islomiy intellektual va madaniy an'analarni shakllantirishdagi rolini namoyish qiladigan muhim loyihaga aylangan. Shiddatli texnologik o'zgarishlar va global keskinliklar davrida ushbu markaz, bir tomondan, musulmon dunyosida konstruktiv muloqot maydoni bo'lib, Markaziy Osiyoning bag'rikeng islom modelini ilgari surish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ikkinchidan, islom sivilizatsiyasi merosining targ'iboti O'zbekistonda Yevroosiy markazini Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan madaniy va diplomatik ko'priq sifatidagi rolini mustahkamlaydi, ko'p mintaqaviy aloqalarga hissa qo'shadi.

Majmua madaniy vazifadan tashqari, radikalashuvga qarshi kurashish, inklyuziv islomni hamda mintaqaviy barqarorlik va xalqaro tinchlik asosidagi me'yorlarni targ'ib qilish uchun faol platformaga aylanaadi. U tarixiy meros mamlakatning strategik ta'sirini kuchaytiruvchi vositaga aylinishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Yangi inshooting ochilishi O'zbekistonning xalqaro maydonda o'rni va nufuzi oshib borayotganini, dunyoda ishonchli hamkor sifatidagi roli ortayotganini ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mamlakatimiz o'zining geografik markazlashuvi, demografik salohiyati va islohotlar kun tartibidan iqtisodiy ochiqlik, mintaqaviy xavfsizlik va madaniy yetakchilikni ilgari surish uchun foydalanmoqda.

Markaz orqali tarixiy meros zamonaviy ta'sirga aylanaadi. U strategik diplomatiya, xalqaro xavfsizlik va farovonlikni mustahkamlash, murakkab global davrda hamkorlikning yangi uflarini ochishga xizmat qiladi.

Din, ilm va zamonaviylik uyg'unligi

Bugun musulmon Sharqida yana bir milliy uyg'unlik o'z bermoqda. O'zbekiston - hozirga qadar Birinchi va Ikkinchi Renessansga guvoh bo'lgan tabarruk zamin. Shu bois dunyoning istalgan burchagida islom haqida so'z ketganda O'zbekistondan chiqqan buyuk allomalar birinchi galda tilga olinadi. Bu diyorning



ilm-ma'rifat tarixidagi tamal toshi, shubhasiz, mustahkam. E'tiborlisi, davlat qurilishida O'zbekiston ulug'vor merosiga, boy ma'naviy manbaga, chuqur mazmunli asosga tayanmoqdaki, bu davlatimizning asrlar davomida cho'qqida bo'lishiga mustahkam kafolatdir.

Bugun mamlakatimizda islom dinining akademik darajada o'rganilishi va o'quv markazlari yaratilishiga, uning nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun islom dunyosining ma'naviy markazi sifatida yuksalishi yo'lida beqiyos amaliy sa'y-harakatlar olib borilayotir. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning Uchinchi Renessansi asosini yaratish maqsadida O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etishi din, ilm va zamonaviylik uyg'unligi hamda rivojini ifodalaydi.

Markaz o'zining mahobati, maydoni va qamroviga ko'ra, dunyoda islom dini tarixi, madaniyati va tamaddunini o'rganish hamda targ'ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biridir. E'tiborlisi, markaz binosi Prezidentimizning me'moriy g'oya va takliflari asosida loyihalashtirilgan. Qurilish jarayonida davlatimiz rahbari ushbu majmuaqa bir necha bor tashrif buyurib, uning mazmunan va shaklan yanada mukammal bo'lishi yuzasidan qimmatli tavsiya va maslahatlarini ulashdi. Xususan, 2025-yilning o'zida Yurtboshimiz markazga bir necha marta kelib, ekspozitsiyalar, infratuzilma, ma'rifiy va ilmiy yo'nalishlarni takomillashtirish bo'yicha muhim ko'rsatmalar berdi.

Markaz qadimiy va milliy me'morchilik an'analari asosida qurilgan bo'lib, unga to'rt tomondan - to'rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Ushbu portallar va binoning tashqi ravoqlari ilm-ma'rifat, bag'rikenglik, insoniylik va ota-onaga hurmat mazmunidagi Qur'on oyatlari hamda hadislar bilan bezatilgan.

shaklda qayta tiklanadi. Tomoshabin bevosita jarayon ishtirokchisiga aylanaadi, buyuk olimlar bilan virtual muloqot qilib, ilmiy tajriba muhitini his etadi.

Majmuauda yosh avlodga alohida e'tibor qaratilgan. "1001 ixtiro" laboratoriyasi orqali bolalarda ilm-fan, texnika va muhandislikka barvaqt qiziqish uyg'otish maqsadi mujassamlangan. Bu esa kelajak avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, muassasa faqat ko'rgazma maydoni emas, balki yirik ilmiy-ta'lim maskani ham hisoblanadi. Bu yerda nodir adabiyotlarni jamlagan kutubxona, restavratsiya laboratoriyalari, xattotlik maktabi va zamonaviy raqamli arxiv faoliyat yuritadi. Hududda qator nufuzli xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini joylashtirish xalqaro ilmiy markaz ahamiyatini yanada oshiradi.

Madaniy diplomatiya platformasi

Majmua Markaziy Osiyodagi eng yirik madaniy-ilmiy loyihalardan biri sifatida baholash mumkin. Shu sababli, dunyo ekspert va mutaxassislari islom sivilizatsiyasi ilmiy merosini zamonaviy texnologiya orqali jahonga taqdim etuvchi yangi platforma, deb atayapti. Ayni chog'da ko'pchilik uni madaniy diplomatiya va turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik obyekt sifatida ta'riflamoqda.

E'tiborlisi, loyiha ustida 40 dan ortiq mamlakatlardan 1 500 ga yaqin mutaxassislar qatnashgan. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi yoki Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi kabi o'z davrida Markaziy Osiyoning dunyoning yetakchi ilm-fan markazlaridan biriga aylantirgan muassasalar an'anasi davom ettirgan holda, O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi yangi avlod uchun ushbu boy intellektual merosni qayta tiklashga qaratilgan. Bu shuni anglatadiki, Toshkent shunchaki yangi muzeyni taqdim qilayotgan yo'q. U o'zining ilm-fan chorrahasi sifatidagi tarixiy maqomini qayta tiklamoqda. Markazning BMT Sivilizatsiyalar alyansi bilan imzolagan memorandumida esa uning global miqyosdagi ma'rifiy va gumanitar ahamiyatini yanada bir bor tasdiqlaydi.

Markaz kutubxonasi bo'limalaridan biri 22 nafar ma'rifatparvar jadid bobomizning merosiga bag'ishlangan. Bu milliy o'zlikni anglash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Kitob javonlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi millat fidoyilarining fotoportretlari o'rin olgan.



Ammo bu shunchaki ko'rgazma emas. Har bir jadid siymosi yonidagi javonlarda ular tomondan yozilgan nodir adabiyotlar, ularning faoliyatiga oid noyob tadqiqotlar va o'z davrining ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi manbalar saqlanmoqda. Bu bo'lim kelajak avlod uchun haqiqiy "tafakkur maktabi" bo'lib xizmat qiladi.

Markazning kutubxona fondini boyitish ishlari davlat darajasidagi strategik vazifa sifatida amalga oshirilmoqda. Markaz aks ettiruvchi buyuk o'lmalimizning dunyo bo'yab sochilib ketgan ilmiy merosini qaytarish ustida tinimsiz ishlamoqda. Bugungi kunda kutubxonasi fondi ko'plab manbalar hisobiga muntazam kengaymoqda. Xususan, dunyoning eng yirik kitob va san'at aksionlarida sotuvga qo'yilgan ko'lyozmalar va toshbosma asarlar xarid qilinmoqda. Yevropa, Osiyo va arab davlatlaridagi kutubxonaga va arxivlar bilan o'rnatilgan hamkorlik bois allomalarimiz asarlarining nusxalari va ilk nashrlari olib kelinmoqda. Ko'plab kolleksionerlar va jaddilarning avlodlari o'zlarida saqlanib qolgan nodir manbalarni markazga taqdim etmoqda. Oddiy fuqarolar tomonidan asrlar davomida o'lib yozilgan meros sifatida saqlab kelingan ko'lyozmalarning majmuaqa topshirilishi milliy merosga yuksak ehtirom namunasidir.

Kutubxonada nafaqat jadidlar, balki Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriy kabi buyuk mutafakkirlar tashkil etgan ilmiy maktablar bo'yicha ham alohida bo'limalar mavjud. Bu yerda ularning asarlariga yozilgan sharhlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning to'planishi Birinchi

va Ikkinchi Renessans hamda bugungi kun o'rtasidagi ma'naviy ko'prikn mustahkamlaydi.

Markaz kutubxonasi shunchaki kitob saqlash joyi emas, balki millatning "genetik kodini" asrovi xazinadir. Jadid bobolarimiz aytganidek: "Najot - ta'limga, najot - tarbiyaga, najot - bilimda". Bugun bu yerda to'planayotgan har bir nodir ko'lyozma va kitob O'zbekistonning yorug' kelajagi uchun xizmat qiladigan ilm bulog'idir. Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosini o'rganish va uni xalqqa yetkazish - bizning nafaqat qarzimiz, balki Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagiga qo'ygan eng katta sarmoyamizdir.

Ma'rifat koshonasi

Mamlakatimizda fuqarolar diniy erkinligini ta'minlash, bag'rikenglik, islom ma'rifiy g'oyasini targ'ib qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. E'tiborli jihati, yurtimizda yangi masjidlar, ulug' ajdodlarimiz nomi bilan atalayotgan

Mana shu murakkab va sharafli yo'lda O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi bir necha asrlar davomida yuritilgan va dunyo mo'min-musulmonlari uchun ruhiy-ma'naviy ozuqa oladigan muhtasham dargohga aylanaadi. U kelajak avlod uchun bir necha yuz yillar ziyo sochadigan, yoshlarga ilm-ma'rifat nurini taratadigan osoriyatga bo'ladi. Buyuk allomalarimizning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini dunyo hamjamiyatiga namoyon etadigan, islom ma'rifatini keng tarqatadigan va yoshlarni ulug' ajdodlarga munosib avlod sifatida tarbiyalaydigan ma'rifat koshonasi o'laroq xizmat qiladi.

Zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma'rifat, taraqqiyot va adolat bo'ladi. Hech qachon to'g'ri yo'ldan adashilmaydi!

G'ofurjon MUHAMEDOV,
O'zbekiston Respublikasi fan arbobi.

EKOLOGIK MUAMMOLARNING SAMARALI YECHIMI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 23-mart kuni ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan ustuvor umummilliy loyihalar yuzasidan navbatdagi taqdimot bilan tanishar ekan, atmosfera havosining sifatini yaxshilash, shahar va hududlarda yashil maydonlarni kengaytirish, ekologik ta'lim va madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratdi.

Aks sado

Davlatimiz rahbariga "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida botanika va dendrologiya bog'lari tashkil etish konsepsiyasi yuzasidan axborot berildi. Aytgandek, hozirgi kunda mamlakatimizda 3 ta botanika bog'i mavjud bo'lsa, loyiha doirasida yana 12 ta botanika va 16 ta dendrologiya bog'i yaratish rejalashtirilgan. Bu jarayonda har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti hisobga olinib, mos daraxt va butalar ekiladi.

Poytaxtda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") uchun tabiiy laboratoriya, aholi uchun esa bioturizm va ekotourizm markaziga aylantiriladigan Milliy dendrologiya bog'i barpo etilishi alohida diqqatga sazovor. Ushbu yirik

yashil hududning umumiy maydoni 108 gektarni tashkil qilishi, boqqa 50 ming tup daraxt ko'chati va 100 ming tup buta o'simligi ekilishi nazarda tutilgan. Bu joy faqat ko'kalimzor hudud emas, balki ilmiy, ma'rifiy va jamoat makoni sifatida ham shakllantiriladi. Unda "Dunyo daraxtlari" hududi, 6 ta iqlim mintaqasiga xos o'simliklar kolleksiyasi, mevali va mahalliy daraxtzorlar, dorivor o'simliklar bog'i, oranjereya, gulzorlar, dam olish maydonlari, piyodalar va velosiped yo'laklari, avtoturargoh, tashrif buyuruvchilarni kutib olish maydoni barpo etiladi.

Taqdimotda "yashil" universitet faoliyatini kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Chunki kelajakda hamma soha ekologiya bilan hamohang bo'ladi. Yoshlarimizning ekologiya yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumot olishi, bilimli, malakali va raqobatbardosh kadrlar

bo'lishi tabiatni asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi qarori asosida ochilgan universitetimizda zamonaviy ekologik yo'nalishlar qamrab olingan. Mazkur oliy ta'lim muassasasi butun faoliyati atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishlari yo'nalishida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan mintaqadagi ilk ixtisoslashtirilgan universitet bo'lib, unda atrof-muhit va barqaror boshqaruv, atrof-muhit va iqtisodiyot, ekologiya va davlat boshqaruvi, barqaror rivojlanish, barqaror moliya, ekologiya huquqi, atrof-muhit sohasida ommaviy kommunikatsiyalar yo'nalishlari ochilgan. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi, ta'lim o'zbek, rus va ingliz tillarida olib borilmoqda.

Albatta, ekologik muammolarga yechim topish uchun bilimli, zamonaviy fikrlaydigan kadrlarni yanada ko'paytirish talab qilinadi. 2026/2027 o'quv yilidan boshlab 14 ta hududda "yashil" texnikumlar tashkil etilib, ular "Green University" tizimiga akademik hamkorlik

asosida birkiriladi, loyihaga ko'ra, tayyorlanadigan o'quvchi va talabalar soni yil sayin oshirilib, 2028/2029 o'quv yiliga borib 10 ming nafarga yetkaziladi.

Bakalavriat va magistraturada atrof-muhit va barqaror boshqaruv, "yashil" iqtisodiyot, atrof-muhit muhandisligi, iqlim o'zgarishi, cho'llanishga qarshi kurashish, barqaror shaharsozlik, barqaror energiya almashuvi kabi yangi yo'nalishlar ochiladi. Ta'lim jarayonida dual tizim joriy qilinib, nazariy bilim bilan amaliyot uyg'unlashtiriladi. Universitet ta'lim tizimini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion loyihalar va targ'ibot ishlari uchun katta miqdorda mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Taqdimotda "Green University" huzurida mintaqaviy qo'shma ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish taklif

qilindi. Ushbu markaz cho'llanishni boshqarish bo'yicha Markaziy Osiyodagi birinchi ilmiy xabga aylana. Bu yerda cho'l iqtisodiyotini o'rganish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida cho'l hududlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, qo'shma markaz tarkibida 15 ta ixtisoslashtirilgan laboratoriya faoliyat yuritadi, sputnik ma'lumotlari, geoxorobot tizimi (GIS) va masofadan zondlash texnologiyalari asosida yerlar holatini raqamli monitoring qilish yo'lga qo'yiladi, qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar bo'yicha genetik bank shakllantiriladi, tuproqning kimyoviy va fizik tahlil tizimi takomillashtiriladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ma'qullangan loyihalar yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, ekologik ta'limni rivojlantirish, zamonaviy kadrlarni ko'paytirish, shu sohada ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga xizmat qiladi.

Baxtiyor PO'LATOV,
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") rektori, texnika fanlari doktori, professor.



BU OYDAN BOSHLAB NIMALAR O'ZGARADI?

Mamlakatimizda bugundan kuchga kiradigan qonunchilikdagi o'zgarishlar nimalardan iborat? Quyida shular xususida ayrim ma'lumotlarni taqdim etamiz.

Pilla yetishtiruvchilarga yangi imkoniyatlar

Prezidentimizning tegishli qaroriga ko'ra, pilla yetishtiruvchilar (ipak qurti boquvchi va kasanachilar)ga "mahalla yetilgini"ning kollejal qarori asosida pillachilik klasteri haqiqatda pilla uchun to'lab bergan mablag'larning 35 foizi miqdorida subsidiya beriladi. Ipak qurtini parvarishlashda zarur bo'ladigan asbob-uskuna va jihozlarni xarid qilish uchun kasanachilarga 3 yil muddatga BHMning 50 baravarigacha miqdorda foizsiz ssuda ajratiladi.

Qoidabuzarliklar uchun jarima ballari

Maksimal avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish tizimlari orqali yozib olingan tegishli yo'l harakati qoidabuzarliklari uchun ham jarima ballari hisoblanadi. Shuningdek, jarima ballarini transport vositasidan fuqarolik-huquqiy munosabatlar (ishonchnoma, sug'urta polisi, yo'l varaqasi) asosida foydalanuvchi boshqa haydovchilarga taqsimlash tartibi joriy etiladi.

Chet el fuqarolariga QQSni qaytarish tizimi

Endi milliy qonunchiligimizga ko'ra, respublikaning barcha xalqaro aeroportlarida chet el fuqarolariga QQSni qaytarish tizimi yo'lga qo'yiladi. QQSni chet el fuqarolarining bank kartasiga qaytarish tovarlar olib chiqib ketilgan sanadan keyin 3 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Chet el fuqarolariga QQSni qaytarishda minimal xarid qiymati QQSni inobatga olgan holda 300 ming so'm etib belgilanadi.

Davlat tibbiyot muassasalarining ish vaqti rejimi o'zgaradi

Davlat tibbiyot muassasalarining ish vaqti rejimi 5 kunlik ish haftasiga o'tkaziladi. Bunda tibbiyot muassasalari ish faoliyatining uzluksizligini ta'minlash uchun bayram va dam olish kunlari navbatchilik asosida ishlash yo'lga qo'yiladi.

To'lovlar faqat bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi

Qonunchilikka ko'ra, quyidagilar uchun to'lovlar faqatgina bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi: davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar; elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvidan foydalanilganlik uchun to'lovlar; alkogol va tamaki mahsulotlari; transportlarga yonilg'i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish va elektrda harakatlanadigan transportlarni zaryadlash bo'yicha xizmatlar; qiymati 25 mln. so'mdan oshadigan tovar va xizmatlar; ko'chmas mulk obyektlari, ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan "M", "N", "O" va "G" toifaga kiruvchi transportlar hamda maxsus avtotransport vositalarini sotish va sotib olish.

"Xalq so'zi".

Biz va jahon

XALQLARNI ILMIY TAFAKKUR ORQALI JIPSLASHTIRUVCHI NASHR

Dehliya O'zbekiston va Hindiston akademik maktablari hamkorligi mahsuloti bo'lgan "So'z.in" ("Suz.in") xalqaro ilmiy jurnalining ilk soni chop etildi.



Mazkur nashr Markaziy va Janubiy Osiyoning yetakchi sharqshunoslari, tilshunoslari va tarixchilari sa'y-harakatlarini birlashtirdi. "So'z.in" ilmiy tafakkur orqali ikki mintaqada do'st xalqlarining chuqur tarixiy va madaniy bog'liqligini ochib berishga intilishni ifodalaydi.

Javoharlar Neru universitetining Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi rahbari, taniqli sharqshunos, professor Axlax Ahmad Ahan tahririyat kengashiga raislik qilmoqda. Bosh muharrir – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori Hulkar Hamroyeva.

Birinchi sonning mazmun-mohiyati ta'assislar tomonidan belgilangan yuqori talablarga to'liq javob beradi. Unda O'zbekiston, Hindiston va Qozog'iston olimlari hamda tadqiqotchilarining ilmiy maqolalari chop etilgan.

Mualliflar geografiyasi va mavzular rang-barangligi qamrovning kengligidan dalolat beradi. Tadqiqotchilar e'tibori markazida Markaziy va Janubiy Osiyo xalqlarining tarixiy aloqalari, madaniy muhitning umumiy jihatlari, shuningdek, asarlari asrlar davomida mintaqalararo muloqot uchun asos bo'lib xizmat qilib kelayotgan buyuk muftafakkirlar – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarning bebaho merosi o'rin oldi.

Ushbu jurnalning chop etilishi ajdodlarimizning boy merosini ommalashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, yosh olimlar uchun o'ziga xos yangi g'oyalari inkubatoriga aylanib, Toshkent va Dehli o'rtasidagi ilmiy-akademik poydevorni mustahkamlaydi, – dedi Hulkar Hamroyeva "Dunyo" AA ga bergan intervyusida.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, jurnalning tashkil etilishi Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi ilmiy-akademik aloqalarni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Barqaror gumanitar ko'priklarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan sharoitda "So'z.in" muloqot qilish, taqqot metodikalari bilan almashish va mintaqa tarixiga chuqur yondasha oladigan yangi avlod olimlarini tayyorlash uchun doimiy faoliyat yuritadigan maydon yaratadi.

"Dunyo" AA.
Dehli

MAKTAB VA UNIVERSITET O'RTASIDAGI UZVIYLIK

Toshkent davlat agrar universitetida maktab va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga qaratilgan "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etildi.

Ta'lim

Unda Qibray tumanidagi umumta'lim maktablari direktorlari ishtirok etib, universitetda yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, o'quv jarayonlari va talabalar tomonidan tayyorlangan "Art galariya" ijodiy ishlar ko'rgazmasi bilan yaqindan tanishdi. Mehmonlarda, ayniqsa, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalar hamda innovatsion o'quv auditoriyalari katta taassurot qoldirdi.

Uchrashuvda asosiy e'tibor abituriyentlarni oliy ta'limga sifatlari tayyorlash masalasiga qaratildi. Shu maqsadda universitetda tashkil etilgan kimyo, biologiya, matematika, fizika va ingliz tili fanlari bo'yicha intensiv tayyorlov kurslari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Aytish joizki, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari uchun ushbu kurslarning muloqot bepul ekani hamda kurslarni



muvaffaqiyatli tamomlab, yuqori ball bilan o'qishga kirgan abituriyentlarning 10 foiziga shartnoma to'lovining 50 foizi qoplab berilishi yoshlarni qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmi sifatida e'tirof etildi.

Shuningdek, universitet rektori Narzullo Oblomurodov bilan bo'lib o'tgan ochiq va samimiy muloqot davomida o'quvchi hamda o'qituvchilarga oliygohda yo'lga qo'yilgan xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari, grant imkoniyatlari hamda

qishloq xo'jaligining bugungi kundagi nufuzi haqida batafsil ma'lumot berildi, zamonaviy agrar soha nafaqat dala ishlari, balki yuqori texnologiyalar va raqamli yechimlar uyg'unligi ekani alohida ta'kidlab o'tildi. Tadbir davomida talabalar uchun qo'shimcha o'quv binolari hamda zamonaviy sport obyektlari qurilayotgani, ushbu inshootlar yaqin vaqt ichida foydalanishga topshirilishi ma'lum qilindi.

Uchrashuv maktab bitiruvchilari uchun zamonaviy agrar soha nufuzini anglash va kelajakdagi kasbiy yo'nalishlarini aniq belgilab olishda muhim qadam bo'ldi. "Xalq so'zi".

ICHAYOTGAN SUVINGIZ ISTE'MOLGA YAROQLIMI?

Xonadonimizdagi jo'mrakdan sharillab oqayotgan zilol suvning sifati, uning iste'molga qay darajada yaroqli ekani haqida har doim ham o'yab ko'ravermaymiz. Ko'pchilik bu savolga aniq va ishonchli javob berishga qiynalishi rost.

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Amaldagi milliy standartlarga muvofiq, ichimlik suvi ta'mi, hidi, rangi, qattiq yoki yumshoqligi kabi jami 48 ta muhim ko'rsatkich bo'yicha talablarga to'la javob bergandagina iste'mol uchun yaroqli, deb topiladi. Aks holda esa u inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirib, turli kasalliklar manbaiga aylanishi mumkin.

Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyasi hamda "Namangan suv ta'minoti" aksiyadorlik jamiyati o'rtasida kelishilgan rejaga muvofiq, o'tgan yil davomida xizmat muddati o'n yildan oshgan 26 ta suv ta'minoti hamda oqova suvlarni tozalash inshootlarida texnologik audit o'tkazildi. O'rganishlar natijasida obyektlarning aksariyatida amaldagi me'yor va talablar qo'pol ravishda buzilayotgani aniqlandi.

Xususan, Norin tumanining Kemaboshi mahallasida joylashgan suv ta'minoti inshooti bir kecha-kunduzda 1512 kubometr suvni iste'molga yaroqli holga keltirish quvvatiga ega bo'lsa-da, amalda u sutkasiga atigi 2-3 soat ishlab, tarmoqlarga bor-yo'g'i 50 kubometr-ga yaqin suv uzatmoqda. Nazorat

jarayonida mazkur inshootda suv sarfini hisobga olish va tarmoqdagi bosimni o'lchash uchun zarur asbob-uskunalarni umumiy o'rnatilmagan ma'lum bo'ldi. Shuningdek, 1000 kilovatt-soat quvvatli transformator atrofida himoya to'siqlari bilan o'rnatilmagan, undan moy sızib chiqayotgani xavfsizlik talablarining qo'pol buzilganini ko'rsatadi.

Eng tashvishli holat esa – uzatiladigan suvni ultrabinafsha nur vositasida zararsizlantirish uchun majburiy tarzda o'rnatilishi shart bo'lgan quzilmaning o'rganish kunida o'z joyida mavjud emasligidir. Aytishlaricha, u ta'mirlash uchun olib ketilgan. Ammo qachon qaytarilib, ishga tushirilishi noma'lum. Bu orada quduqdan olinayotgan suv hech qanday zararsizlantirish jarayonida o'tkazilmasdan to'g'ridan-to'g'ri aholi xonadonlariga uzatilayotganiga mas'ullar e'tibor qaratmagan.

Vaholanki, uzatilayotgan suv tarkibida inson salomatligi uchun xavfli mikrobyonli bakteriyalar yo'qligiga hech kim kafolat berolmaydi. Qizil to'v mahallasida joylashgan 1-suv chiqarish inshootidagi holat ham maqtugulik emas. Obyektga begona shaxslar kirishining

oldini olish maqsadida qurilgan himoya devorlarining katta qismi qulab tushgan – xavfsizlik deyarli ta'minlanmagan. Shuningdek, inshootda tarmoqdagi bosimni nazorat qilish uchun zarur bo'lgan monometr mavjud emas.

Bu yerda ham suvni zararsizlantirish uskunasi nosoz holatda bo'lib, uni qachon ta'mirlab, ishga tushirish masalasi noma'lum. Mas'ullar tomonidan aniq muddat va kafolat berilmagan esa vaziyatning jiddiyligini ko'rsatadi.

– Ochiq'i, Norin tumanidagi holat ancha tashvishli, – deydi viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyasining ichimlik suvi bo'limi boshlig'i A'zamjon Boboyev. – Chunki tumanda mavjud 6 ta suv ta'minoti inshootining 5 tasida jiddiy kamchiliklar aniqlandi. Bunday sharoitda aholiga uzatilayotgan ichimlik suvi to'la tozalangan holda yetkazib berilayotgani haqida ishonch bilan gapirish qiyin.

Uning aytishicha, texnologik audit natijalari yuqori tashkilotlarga taqdim etilgan va tegishli chora-tadbirlar belgilangan. Biroq hal etilishi lozim bo'lgan 20 turdagi

Ma'lumotlarga ko'ra, viloyat bo'yicha aholi va maishiy iste'molchilarga ichimlik suvi 407 ta ixtisoslashtirilgan inshoot orqali yetkazib beriladi. Ularning qay darajada amaldagi talablarga javob berayotgani, uzatilayotgan suv sifati qanday ekani va uni ishonch bilan iste'mol qilish mumkinmi, degan savollar doimiy nazoratni talab etadi. Buning eng samarali yo'li esa texnologik auditni muntazam va tizimli tarzda olib borishdir.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

2026 – 2028-yillarda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi yo'nalishida ilmiy daraja olgan nomzodlar sonini 150 nafargacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nuxxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oq bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksaltirish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumurov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nabatchi muharrir R. Bojboynov.
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.05 Topshirildi – 00.15 1 2 3 4 5 6